

21 - SON
TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI KO'RSATILISHI TO'G'RSIDA
ABONENT SHARTNOMASI

Yuridik shaxslar (shu jumladan, budget tashkilotlari) uchun

20 22 yil "31" 01

Guliston sh.

"O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi (keyingi o'rinlarda – Kompaniya) nomidan 2021 yil "30" dekabrda 27-01-14/6034 -son ishonnoma asosida faoliyat yurituvchi Kompaniyaning Sirdaryo filiali direktori Abdumamatov R.E. (keyingi o'rinlarda – Operator) bir tomondan va Sardoba t. A.B. & M. Sh. Abduramidorov nomidan Ustav (Nizom, ro'yxatga olinganlik to'g'risidagi guvohnoma, ishonnoma) asosida faoliyat yurituvchi Sh. Abduramidorov (keyingi o'rinlarda – Abonent) ikkinchi tomondan (keyingi o'rinlarda birgalikda - Tomonlar) telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatilishi bo'yicha quyidagilar haqida Abonent shartnomasini (keyingi o'rinlarda – Shartnoma) tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1.1. Abonent ushbu Shartnomani imzolab:

- Operatorning WWW.UZTELECOM.UZ rasmiy veb-saytida e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-369-moddalariga muvofiq "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasining telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida abonent shartnomasini tuzishga rasmiy ommaviy taklifi bo'lgan Ommaviy ofertasi (keyingi o'rinlarda – Oferta) shartlari bilan to'liq tanishib chiqqanligini tasdiqlab, ushbu Oferta shartlari asosida Operator bilan telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatilishi to'g'risida shartnoma tuzadi;

- Operator tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar uchun Abonent dastlabki avans to'lovini amalga oshirishi va to'lov faktini tasdiqlovchi tegishli moliyaviy hujjatni olishi Operator Ofertasining shartlarini so'zsiz qabul qilishi (akseptini) hisoblanadi.

1.2. Tomonlar Ofertaning 2-moddasida ko'rsatilgan maqsadlarda ushbu Shartnomani imzolaganidan so'ng, Operator Abonentga identifikatsiya raqamini beradi. Identifikatsiya raqami berilganidan so'ng, Abonent, Operator tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar ro'yxati doirasida o'z tanlovidan kelib chiqib, dastlabki avans to'lovini amalga oshirishi mumkin.

1.3. Xizmat ko'rsatish shartlari Ofertaning 3-moddasida belgilangan asoslarda va Abonent tomonidan tanlangan xizmat turi hamda ushbu xizmatni taqdim etish uchun texnik imkoniyatlar mavjudligidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

2. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

2.1. Operator ushbu Shartnomani imzolagan vaqtdan boshlab, Ofertaning 4-moddasida belgilagan huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi.

2.2. Abonent ushbu Shartnomani imzolagan vaqtdan boshlab, Ofertaning 5-moddasida belgilagan huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi.

2.3. Tomonlar ushbu Shartnoma amal qilish davrida, o'z huquq va majburiyatlariga qat'iy rioya etilishini ta'minlash yuzasidan zarur choralarini amalga oshiradilar.

3. Hisob-kitob va to'lovlar tartibi

3.1. Mazkur Shartnoma bo'yicha xizmatlar (mobil aloqa xizmati bundan mustasno) ko'rsatilganidan keyin to'lovni amalga oshirish davlat budjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlari uchun (Postpaid) tizimi shartlari tatbiq etiladi.

3.1.1. Xo'jalik hisobidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar uchun ko'rsatiladigan xizmat uchun kamida bir oylik abonent to'lovini oldindan amalga oshirish (Prepaid) tizimi shartlari tatbiq etiladi

3.2. Tariflar Abonent bilan Shartnoma tuzilganda va Operator xizmatlaridan foydalanish jarayonida Abonent bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun majburiydir. Xizmatlar uchun barcha tariflar milliy valyutada ko'rsatiladi va ushbu Shartnoma tuzilgan vaqtda belgilangan barcha soliqlar va yig'imlarni o'z ichiga oladi.

3.3. Xizmatlardan foydalanish uchun Abonent to'lovi birinchi oyda ushbu Shartnoma tuzilgan sanadan boshlab **3 (uch) bank kuni** mobaynida amalga oshiriladi.

3.3.1. Ilk bor ulanishda Abonent to'lovi 100 (bir yuz) foiz miqdorida oldindan to'lanadi. Dastlabki avans to'lovi oldindan to'lov bo'yicha talabnoma (hisob) asosida hamda ushbu Shartnomaning tegishli ilovasida (Abonent tomonidan tanlangan xizmat turi bo'yicha) ko'rsatilgan miqdorga muvofiq har bir tanlangan xizmat turi uchun alohida amalga oshirilishi mumkin.

3.4. **Budget tashkiloti bo'lgan Abonent uchun** Shartnomaning umumiy summasi ushbu Shartnomaning tegishli ilovasiga (Abonent tomonidan tanlangan xizmat turi bo'yicha) muvofiq ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bilan belgilanadi.

Shartnomaning umumiy summasi (QQSni hisobga olgan holda) 1790000 so'mni tashkil etadi. Ushbu summa (Bir million yetti yuz yetmish ming) so'mni tashkil etadi.

miqdoridagi Abonent to'lovini hamda _____ () miqdoridagi bir martalik to'lovni o'z ichiga oladi.

3.4.1. Mazkur Shartnomaning umumiy summasi oshib ketgan taqdirda, ortiqcha summa Tomonlar o'rtasida imzolangan qo'shimcha kelishuv/taqdim etilgan hisob-faktura asosida to'lanadi.

3.5. Abonent ushbu Shartnomaga asosan yoki berilgan hisob-faktura asosida har oyda Operator tomonidan hisob-faktura berilgan kundan boshlab **3 (uch) bank kuni** ichida ushbu Shartnomada ko'rsatilgan Operatorning Shaxsiy (elektron) hisob raqamiga pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan Operator tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar haqini to'laydi.

3.5.1. Xo'jalik hisobidan moliyalashtiriladigan abonentlar ushbu Shartnomada belgilangan abonent to'lovlarini keying oy uchun oldindan amalga oshirishi shart.

3.6. Agar Abonentning Shaxsiy (elektron) hisob raqamida xizmatlar ko'rsatish uchun yetarli mablag' bo'lmasa yoki mazkur Shartnomaning **3.5 va 3.5.1-bandlarida** ko'rsatilgan muddatda har oylik to'lov amalga oshirilmagan bo'lsa, Operator ushbu Shartnoma bo'yicha xizmatlari ko'rsatilishini to'xtatishi mumkin.

3.7. Operator tomonidan ulangan va taqdim etilgan xizmatlardan Abonent tomonidan foydalanilmasligi, Abonentga ushbu xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirishiga asos bo'la olmaydi.

3.7.1. Agar Abonent Operator xizmatlaridan foydalanishni vaqtincha to'xtatishni, shuningdek, hisobot davri (kalendar oyi) uchun istalmagan to'lovlarning oldini olishni istasa, Abonent hisobot oyining 1-kunidan oldin xizmatlarni ixtiyoriy ravishda blokirovka qilish uchun ariza topshirishi kerak. Blokirovka qilish tartibi Oferta qoidalarini bilan tartibga solinadi.

3.8. Operatoridan bonuslar ko'rinishida reklama aksiyalari doirasida Abonentga taqdim etilgan barcha mablag'lar faqat Operator xizmatlari uchun to'lanishi mumkin va Shartnoma bekor qilinganda Abonentga pul shaklida to'lanmaydi yoki qaytarilmaydi.

3.9. Operator tomonidan taqdim etilgan xizmatlar, Shartnomaga muvofiq har bir xizmat turi uchun alohida rasmiylashtiriladigan hisob-faktura bilan yopiladi. Har bir hisob-fakturada taqdim etilgan xizmatlarning to'liq kalendar oyi uchun umumiy miqdori ko'rsatiladi.